



ALFRAGANUS UNIVERSITY

**UCHINCHI RENESSANS –
TA'LIM VA TARAQQIYOT:
★ O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK ★
mavzusidagi
I Xalqaro talabalar
Konferensiyasi**

2023-YIL 17-NOYABR

UCHINCHI RENESSANS – TA’LIM VA TARAQQIYOT: O‘TMISH, BUGUN VA KELAJAK

mavzusidagi
I Xalqaro talabalar
Konferensiyasi



Alfraganus universiteti



**Muxtor Auezov nomidagi
Janubiy Qozog‘iston universiteti**



**B.Gafurov nomidagi Xo‘jand davlat
universiteti**



Chimkent universiteti



**Xo‘jand shahridagi Tojikiston aniq fanlar
va texnologiyalar instituti**

Mas'ul muharrir:

Muhammadismoil Maxmudov

Alfaraganus universiteti rektori

Konferensiya tashkilotchisi:

Xurshidbek Qurbonov

Alfaraganus universiteti iqtidorli talabalar bilan ishlash бўлими
бошлиғи

Taqrizchilar:

Nozim Muminov

Alfaraganus universiteti prorektori

Mavluda Raximshikova

Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti

Ravshan Usanov

B.Gafurov nomidagi Xo'jand Davlat universiteti

Mo'minjon Xo'jayev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari

Adhamjon Mirzachaev

“Alfaraganus” Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xodimi

Anjuman tezislarining ilmiy saviyasiga ilmiy maslahatchi va muallif
javobgar hisoblanadi.

**Alfraganus university Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil
6-noyabrdagi 1-sonli majlisida nasrga tavsiya etilgan.**

Vaxobov Muxammadali
Alfraganus university Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
yo‘nalishi 3- kurs talabasi
Ilmiy maslahatchi: PhD Gafurov Anvar

YANGI O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi yangi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning o‘rni, ahamiyati, barqaror rivojlantirish yo‘llari, hamda mavjud muammolarni bartaraf etish usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ekologiya, atrof- muhit, tabiat.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, O‘zbekistonning bozor islohotlarining navbatdagi bosqichiga o‘tishi uchun qulay sharoit yaratdi. Iqtisodiy islohotlar yanada “yashil” bo‘lib, iqtisodiyot barqaror bo‘lsa, ushbu jarayon O‘zbekiston uchun yanada foydaliroq kechishi mumkin.

Darhaqiqat, UNEP (the United Nations Environment Program) ning fikriga ko‘ra “Yashil iqtisodiyot” (GreenEconomy) - bu “inson farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishiga, ekologik xavf va ekologik tanqislikning sezilarli darajada pasayishiga” olib keladigan iqtisodiyotdir.

Zero, yashil iqtisodiyot bu sof yoki “yashil” texnologiyalarga asoslangan ekologik toza mahsulotlarni yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi bo‘lib tabiatga yordam beradigan va foyda keltiradigan yangi texnologiyalar, eko tizimlarni o‘zichiga oladi. Qolaversa bu tizim mamlakat tabiatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiyotning yangi tarmoqlariga bevosita yo‘l ochishi shubhasiz.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun “yashil” o‘tish yangi bosqich bo‘lganligi bois bu borada hali yetarlicha izlanishlar olib borilmagan. Ammo, Jahon banki tomonidan shu kungacha bir qator izlanishlar, muhokamalar o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston “yashil” o‘tish sari qadam tashlamoqda, zero “yashil” o‘tish mustaqil jarayon emas, balki barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o‘tishning ajralmas qismidir. Iqtisodiy islohotlarning navbatdagi bosqichida kambag‘allikni ikki baravar kamaytirish va 2030-yilga borib O‘zbekistonni daromadi o‘rtachadan yuqori davlatga (UMIC) aylantirishni maqsad qilib qo‘yilgan. Iqtisodiy islohotlarga “yashil” maqsadlarni joriy etish orqali O‘zbekiston o‘tish jarayonini mustahkamlash va ushbu jarayondan olinadigan foydani oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu sinergiya “O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”da ham e’tirof etilgan.¹

¹2019-yil 4-oktabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori

Xo'sh O'zbekiston nega "yashil iqtisodiyot"ga o'tishi zarur? Bunga bir qator omillar sabab bo'lmoqda, jumladan:

- Xalq xo'jaligida iste'mol qilinadigan energiya katta qismi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarilishi;
- Ushbu resurslarning cheklangan ta'minoti;
- Sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi;
- Suv tanqisligi;
- Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolar kuchaymoqda.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yiaholisini normal sanitary sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy Osiyoda davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quay oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Shunday muammolardan yani biri barchaga ma'lumki joriy yil boshidagi qish faslida anomal sovuqlarda yurtimizda neft-gaz va elektroenergiya yetishmovchiligining guvohi bo'ldik. Bilamizki yurtimizda elektr energiya ishlab chiqarishda 86 foiz neft-gaz yoqish orqali, 4 foiz ko'mir yoqish orqali, 9 foiz elektrogenlardan ishlab chiqariladi. Faqatgina 1 foiz elektr energiya quyosh panellaridan, ishlab chiqariladi. Albatta buning birinchi o'rinda ekologiya uchun katta zarar etkazadi, undan tashqari neft-gazni isrof bo'lishiga ham sabab bo'ladi.¹

Agarda ushbu takidlab o'tilgan holatlarga o'zgartirish kiritilsa elektr energiya ishlab chiqarishda asosiy e'tiborni neft-gaz yoki ko'mir yoqib ishlab chiqarishga emas balki elektrgenlardan quyosh panellaridan va shamol tegirmonlaridan elektroenergiya ishlab chiqarishni rivojlantirsak va neft-gaz ko'mir yoqib energiya ishlab chiqarishni kamaytirsak nafaqat ekologiya va atrof muhitga yetayotgan zararni kamayishiga balki neft-gazni tejashiga ham katta foyda keltirgan bo'lamiz.

Xulosa. Bugungi kunda O'zbekiston o'zining hozirgi rivojlanish modeli bo'yicha o'sish chegaralarini yengib o'tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo'lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi.

Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, o'z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan moslashuvchan, inklyuziv, barqaror va samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeli sari yo'lni belgilash bo'yicha qadamlar tashlamoqda. Lekin, yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga aylanish uchun

¹ Yashil iqtisodiyot darslik /A.B.Вахабов, III.X.Хажикаев –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262. <https://kun.uz/uz/news/2019/10/07/ozbekistonning-yashil-iqtisodiyotga-otishining-asosiy-vazifalari-ochiqlandi>

mamlakat mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradigan boshqa xavf omillari ustida ishlashi kerak. O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning ro'lini kuchaytirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur:

Resurslardan va qayta tiklanuvchi resurslardan oqilona foydalanish.

Ekologiyaga yetkayotgan zararlar miqdorini kamaytirish va ekologiyani muhofaza qilish zarur.

Bular bilan birga energetika va yashil texnologiyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratish zarur. Buning uchun barchamiz birdek kurashish va burdamlikda xarakat qilish zarur hisoblanadi.

Birinchidan, aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to'g'risida axborot bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish darkor.

Uchinchidan, "yashil" davlat xaridlari siyosatini olib boorish orqali ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda "yashil" texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning energiya salohiyatini oshirishda "yashil" texnologiyalardan samarali foydalanish kerak.

Beshinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida "yashil" infratuzilmaga sarflanadigan davlat investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali biz kelajak avlodlar uchun yanada taraqqiy etgan barqaror rivojlanish asosidagi iqtisodiyotni ta'minlashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" Iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
- 2) "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar turkumi: Ishlar to'plami. Jahon banki: Washington D.C."
- 3) Порфирьев Б.П. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
- 4) Yashiliqtisodiyotdarslik /A.B.Vaخابов, Ш.Х.Хажигакиев –Тошкент.: "Universitet", 2020. -262 б